

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ELEKTR TARMOQLARI VA TIZIMLARI**

fanidan 5310200 - Elektr energetikasi(Elektr ta'minoti) yo'nalishi  
talabalarining kurs loyihasini bajarishlari uchun

**USLUBIY KO'RSATMALAR**

Toshkent - 2019

UDK 622.9.33.7

Tuzuvchilar: Rasulov A.N., Meliqo‘ziyev M.V., Mamarasulova F.S.  
“Elektr tarmoqlari va tizimlari” fanidan kurs loyihasini  
bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. – Toshkent: ToshDTU,  
2019. - 61b.

Uslubiy ko‘rsatmalar 5310200 - Elektr energetikasi(Elektr ta’minoti)  
yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarga «Elektr tarmoqlari va  
tizimlari» fanidan kurs loyihasini bajarish uchun mo‘ljallangan.

Ko‘rsatmalarda kurs loyihasining hamma bosqichlari aniq misol  
orqali ko‘rib chiqilgan, bundan tashqari yetarli darajada kerakli  
ma’lumotnomalardan materiallar keltirilgan.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-  
uslubiy ke  
ngashining qaroriga asosan chop etilgan.*

Taqrizchilar:

Sattorov X.A. – TATU “Energiya ta’minlash tizimlari” kafedrasi  
dotsenti;

Raxmonov I.U. – ToshDTU “Elektr ta’minoti” kafedrasi dotsenti.

## **1. KURS LOYIHASINI BAJARISH UCHUN ASOSIY KO'RSATMALAR**

**Kurs loyihasining maqsadi:** Kurs loyihasini bajarish bo‘lajak mutaxassislar tayyorlashning asosiy bosqichlaridan biridir. Kurs loyihasini bajarishdan maqsad o‘quv, tajriba va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida olingan nazariy bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish, mustahkamlash, tavsiya etilgan adabiyotlarni mustaqil o‘rganish, loyihalash ishlarida boshlang‘ich tajriba orttirish, kitob va ma’lumotnomalar ustida ishlashga amaliy ko‘nikmalar hosil qilish, tushuntirish uchun matn yozish va rasmiylashtirish hamda loyihaning grafik qismini bajarishdir.

**Loyihada ko‘rib chiqiladigan asosiy masalalar:** Tuman elektr tarmog‘i shunday loyihalashtirilishi kerakki, uni amalga oshirish uchun eng kam kapital mablag‘ sarflanishi, tarmoqning ekspluatatsiya vaqtidagi yillik xarajati esa minimal bo‘lishi kerak. Bu maqsadga muvofiq iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ammo amaliy hisoblarda kapital mablag‘ bilan yillik xarajatning minimumlari ayni bir vaqtga to‘g‘ri kelmaydi. Ko‘pincha qurilishga kattaroq mablag‘ sarflanadigan variant ekspluatatsiyaga kamroq xarajat talab qiladi. Agar variantlar ishonchlilik bo‘yicha bir xil bo‘lsa, kapital mablag‘i ham, ekspluatatsiya xarajatlari ham ko‘proq bo‘lgan variant oldindan hisobga olinmaydi. To‘g‘ri qilingan xulosaning asosiy mezonlari—bu iste’molchilarga sifatli elektr energiya yetkazib berish, iste’molchilarining kategoriyasiga qarab uzlusiz elektr energiyasi bilan ta’minlash, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning maqsadga muvofiqligi hamda tarmoqlarning kelajakda ham ishlatilishi va rivojlanishi uchun qulayliligidir.

**Amaliy loyihalash vaqtida quyidagi asosiy masalalar hal qilinishi kerak:**

- Tarmoqning(*liniya va podstansiyalar*) elektr ulanish sxemasini tanlash;
- Tarmoqning nominal kuchlanishini aniqlash;
- Liniya simlarining kesim yuzasini va markasini, tayanchlarning tiplarini va zanjirlar sonini tanlash;
- Podstansiyalardagi transformatorlarning tipini, quvvatini va sonini tanlash;
- Kuchlanishni rostlash usullarini, kuchlanishni rostlash qurilmalarining quvvatini va joyini tanlash;
- Elektr ta’mnotinining optimal variantini tanlash va uni maksimal, minimal va avariya rejimlarida quvvat isrofi, energiya isrofi va kuchlanish yo‘qotilishi nuqtayi nazaridan hisoblab chiqish;

- Quvvat va energiya isrofini kamaytirish uchun qilinadigan tadbirlar;
- Sistemada chastotani rostlash uchun amalga oshiriladigan tadbirlar;
- Sistema stansiyalari orasida yuklamalar taqsimlanishini tejaml ravishda ta'minlash va aniqlash;
- Sistema uskunalarini ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalarni ko'rib chiqish, zahiradagi quvvat miqdorini va zahiraning joylashgan o'rnnini aniqlash;
- Sistemada betaraf nuqta(neytral) holati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilish;
- Tarmoq elementlarining rele himoyasini, ish jarayonini avtomatlashtirish tadbirlarini ko'rib chiqish;
- Sistemada yashindan saqlanish bo'yicha qilinadigan tadbirlar;
- Elektr stansiyalar, podstansiyalar, liniya tayanchlarini zaminlovchi qurilmalarni hisoblash va ishlab chiqish;
- Har bir liniya trassalarini izlab topish va tanlash, liniya tayanchlarining fundamentlari, trosslar va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan mexanik hisoblarni bajarish;

Yuqorida keltirilgan savollardan birinchi yettitasi ushbu kurs loyihasida ko'rib chiqiladi.

**Loyihani rasmiylashtirish:** Kurs loyihasi 25-30 varaqdan iborat bo'lgan tushuntirish matnidan va grafik qismdan iborat.

Tushuntirish matni titul varag'idan boshlanadi. Undan keyin loyiha topshirig'i, ishlab chiqilgan hamma bo'limlarning betlari ko'rsatilgan mundarija va loyihaga qo'shiladigan chizmalarning ro'yxatini ko'rsatiladi.

Loyiha hujjatlarining hajmini qisqartirish va loyihalash uchun qilingan mehnatni kamaytirish maqsadida boshlang'ich ma'lumotlardan tortib to olingan natijalargacha hamma hisoblar jadvallarga yoziladi.

Kerakli hollarda tushuntirish matni rasmlar, grafiklar, sxemalar bilan tasvirlanadi(*odatda millimetr qog'ozlarda va boshqa*).

Ushbu loyihada hamma hisoblash sxemalari(*tavsiya etilgan variantning sxemasidan boshqa*) tushuntirish matnida tanlangan variantning to'g'riligini isboti sifatida keltirilishi kerak.

Tushuntirish matnining oxirida talaba qilingan ishlar haqida xulosa chiqarib, foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxatini ko'rsatishi kerak.

*Loyihaning grafik qismi* A1 formatli 2 ta chizmadan iborat bo'ladi.


*Birinchi chizmada* quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

a) ko'rيلотган туманинг масштабдаги план топшириг'i(*ta'minlash nuqtasi va podstansiyalarning nomlari hisobiy quvvatlari bilan birga*);

b) berilgan tumanning elektr ta'minoti prinsipial sxemasi(*tanlangan variant bo'yicha*), quyidagilar bilan:

Podstansiyalarda – transformatorlarning soni, tipi, nominal quvvati, chulg'amlarining ularish gruppasi, YUK va PK lardagi nominal kuchlanishlar, tanlangan sxema uchun yacheykalar soni ko'rsatilishi kerak;

Liniyalarda – uning nomeri(*masalan*, HL-3), uzunligi km da, tanlangan simning kesim yuzasi va markasi, zanjirlar soni va tavsiya qilinadigan tayanch turi ko'rsatiladi.



1.1-rasm.

c) texnik hisoblash natijalari jadvalda ko'rsatiladi.

Ikkinci chizmada tavsiya etilayotgan variantning ekvivalent hisoblash sxemasi keltiriladi. Sxemada normal rejim uchun quvvat oqimi taqsimlanishi, kompensatsiyalovchi uskunalarning quvvati va o'rni, podstansiyaning YUK va PK shinalaridagi haqiqiy kuchlanishlar, transformatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash natijasida tanlanganligi ko'rsatilishi kerak.

Chizmalar FOCT talablariga muvofiq holda bajarilishi lozim. Chizmalarning pastki o'ng burchagida shtamp chiziladi.

## 2. LOYIHALASH UCHUN TOPSHIRIQ VA DASTLABKI MA'LUMOTLAR

Har bir talabaga loyihalash uchun iste'molchi podstansiyalar va ta'minlash manbayi–tuman miqyosidagi yirik elektr stansiya va cheksiz quvvatli sistemaning joylanish plani ko'rsatilgan topshiriq varianti beriladi(*1-ilovaga qarang*).

Odatda elektr stansiya quvvati ma'lum bo'lgan manba hisoblanadi (*agregatlarning soni, quvvati va  $\cos\phi$  ma'lum*), sistema muvozanatlovchi manba bo'lib, kuchlanishi – 110, 220, 330 kV bo'lishi mumkin.

Sistema loyihada ko'rيلayotgan tumanni ta'minlash uchun yetishmayotgan aktiv quvvatning hammasini berishi mumkin, kerak bo'lganda esa yuklamaning minimal holatida hosil bo'ladigan ortiqcha aktiv quvvatning hammasini qabul qilishi ham mumkin

(loyihalashtirilayotgan sistema reaktiv quvvat muvozanatini saqlashi lozim, ya’ni uning cheksiz quvvatli sistema bilan aloqasi  $\cos\varphi=0,97-1,0$  ga teng bo’lishi kerak).

Iste’molchilar uchun yuklamaning aktiv quvvati  $P_n$ , MVt da, quvvat koeffitsiyenti  $\cos\varphi_n$ , yil davomida iste’mol qilinadigan energiya miqdori  $W_n$ , kVt·soat da beriladi.

### **3. BERILGAN TUMAN ELEKTR TA’MINOTI UCHUN AKTIV VA REAKTIV QUVVATLAR BALANSINI TUZISH**

#### **3.1. Asosiy qoidalar**

Ulangan iste’molchilarining ulanish xarakteriga bog’liq holda alohida tumanlar yuklamalarining umumiyligi grafiklari bir-biridan farq qiladi va ularning maksimumlari yig‘indisi sistema yuklamasining maksimumidan katta. Shuning uchun elektr stansiya va podstansiyani elektr tarmoqlari yordamida birlashtirish va ularni sistema bilan bog’lash, elektr energiyani alohida ishlab chiqarish va iste’mol qilishga nisbatan afzalroqdir.

Elektr stansiyalar va iste’molchilarini elektr sistemaga birlashtirish quvvat almashuvini, zaxiradagi quvvatning kamayishini, avariya va ta’mirlash vaqtida ish sharoitini o’zaro yordam bilan yengillashtirishni, yuklamalarni stansiyalararo tejamli taqsimlanishini ta’minlab, qo’shimcha iqtisodiy afzalliliklar beradi.

Elektr stansiyalar va tizimlarni birlashtirish elektr hisoblariga, ayniqsa elektr xo’jaligini boshqarishga va uni ekspluatatsiya qilishga bir qator murakkabliklar olib keladi.

Birlashmalar ish holatini olib borishga taalluqli muhim ishlar quyidagilardan iborat:

1. Elektr stansiyalar chastotasini rostlash;
2. Sistemada kuchlanish va aktiv quvvatni rostlash;
3. Sistemadagi nonormal ish holatlarini yo’qotish va boshqalar.

Kurs loyihasida birinchi ikki masala ko’rib chiqiladi.

**Chastota** – bu elektr energiyaning sifat belgisidir, nominal qiymati  $50\pm0,1$  Hz ga teng bo’lishi kerak, avariya holatida  $\pm0,2$  Hz ga farq qilishi mumkin. Shuning uchun loyihalashtirilayotgan tuman elektr ta’minoti sxemasida aktiv quvvat balansi tuzilishi kerak va shu balansni ta’minlash rezervi aniqlanishi kerak.

**Kuchlanish** – bu elektr energiyaning asosiy sifat ko’rsatkichlaridan biridir, iste’molchiga uning nominal kuchlanishdan faqat  $\pm5\%$  farq

qiladigan qiymati berilishi kerak. Shuning uchun loyihalashtirilayotgan tuman elektr ta'minoti sxemasida reaktiv quvvat balansi tuzilishi kerak va shu balansni ta'minlash rezervi qo'shimcha reaktiv quvvat manbalarini o'rnatish yo'li bilan aniqlanishi kerak.

### **3.2. Aktiv quvvat balansi**

Agar elektr stansiyada o'rnatilgan(*ishlab chiqarilayotgan*) quvvat yig'indisi( $\sum P_g$ ), yuklamalar quvvati( $\sum P_{yuk}$ ) elektr stansiyalarning xususiy ehtiyojiga sarflanadigan quvvat( $P_{xe}$ ), loyihalashtirilayotgan tarmoqdagi aktiv quvvat isrofi( $\Delta P$ ) va quvvat rezervi( $P_{zahira}$ )lar yig'indisiga teng bo'lsa, u holda sistemada balans sharti bajariladi.

$$\sum P_g = \sum P_{yuk} + P_{xe} + \Delta P \pm P_{zahira}$$

Elektr stansiyalarning xususiy ehtiyoji sarfi miqdori:

GES uchun –  $P_{xe} = \sum P_g$  ning 1 % ga;

IES uchun –  $P_{xe} = \sum P_g$  ning 8 % ga;

DIES uchun –  $P_{xe} = \sum P_g$  ning 3÷5 % ga teng qilib olinadi.

Hisob-kitobni boshida tarmoqdagi aktiv quvvat isrofining haqiqiy qiymati aniq bo'lмагани учун актив quvvat isrofi  $\Delta P$  ni yuklamalar quvvati yig'indisining  $\sum P_{yuk}$  6÷10% ga teng deb olish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ifodadan cheksiz quvvatli sistema bilan bog'langan hol учун  $P_{zahira}$  ning qiymati aniqlanadi.

Agar balans  $P_{zahira}$  manfiy bo'lsa, unda quvvat oqimi sistemadan keladi; aktiv quvvat oqimi sistemaga borsa, unda ko'rيلayotgan tarmoqda ortiqcha aktiv quvvat borligi ma'lum bo'ladi.

### **3.3. Reaktiv quvvat balansi**

Generatorlarning aktiv quvvati MVt yoki kVt larda katalog va ma'lumotnomalarda ko'rsatilgan bo'ladi, generatorning reaktiv quvvatini esa quyidagi ifoda orqali topish mumkin:

$$Q_g = P_g \cdot \operatorname{tg}\varphi$$

bu yerda,  $\operatorname{tg}\varphi$  – generatorning berilgan nominal quvvat koeffitsiyenti orqali aniqlanadi.

Reaktiv quvvat balansi tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\sum Q_g = \sum Q_{yuk} + Q_{xe} + \Delta Q + Q_{zaryad} \pm Q_{zahira}$$

bu yerda,  $\sum Q_g$  – generatorlar ishlab chiqaraetgan reaktiv quvvatlar yig'indisi;  $Q_{xe}$  – elektr stansiyalarning xususiy ehtiyojiga sarflanadigan reaktiv quvvat;  $\Delta Q$  – o'r ganilayotgan tarmoqdagi reaktiv quvvat isrofi;

$Q_{zaryad}$  – havo liniyalari generatsiya qilayotgan reaktiv quvvat.

Elektr tarmog‘ini oldindan tahlil qilish uchun reaktiv quvvat balansi shartini quyidagicha tekshirish mumkin:

1. Yuklamalarning reaktiv quvvatlari aniqlanadi:

$$Q_A = P_A \cdot \operatorname{tg}\phi; Q_B = P_B \cdot \operatorname{tg}\phi; \dots$$

2. Barcha yuklamalarning reaktiv quvvatlari yig‘indisi topiladi:

$$\sum Q_{yuk} = Q_A + Q_B + Q_C + Q_D + Q_E$$

Elektr stansiyaning xususiy ehtiyoji uchun sarflanadigan reaktiv quvvat( $Q_{xe}$ ):  $Q_{xe} = P_{xe} \cdot \operatorname{tg}\phi_g$

3. Tarmoqdagi reaktiv quvvat isrofi quyidagicha aniqlanadi.

a) Podstansiyalardagi transformatorlarning po‘lat o‘zagidagi isrof ( $\Delta Q_{po\ lat}$ ) yuklamalar aktiv quvvat yig‘indisining ( $\sum P_{yuk}$ ) 5% ga teng qilib olinadi:  $\Delta Q_{po\ lat} = (\sum P_{yuk} \cdot 5)/100$

b) Havo liniyalaridagi va transformatorlarning chulg‘amlaridagi reaktiv quvvat isrofi:  $\Delta Q_m = 3 \cdot \sum \Delta P$

c) Tarmoqdagi to‘liq reaktiv quvvat isrofi:  $\sum \Delta Q = \Delta Q_{po\ lat} + \Delta Q_m$

Uzatuv liniyalar generatsiya qilayotgan zaryad quvvati bitta 110 kV li zanjirning har bir km uchun  $Q_{zaryad} = 0,035$  MVAr ga teng deb olinadi. 220 kV li zanjir uchun esa  $Q_{zaryad} = 0,132$  MVAr. Generatsiya qilinayotgan ( $\sum Q_g + Q_{zaryad}$ ) va iste’mol qilinayotgan ( $\sum Q_{yuk} + Q_{xe} + \Delta Q$ ) quvvatlar orasidagi farq tarmoqdagi ortiqcha yoki yetishmayotgan reaktiv quvvat haqida ma’lumot beradi:

$$(\sum Q_g + \sum Q_{zaryad}) - (\sum Q_{yuk} + Q_{xe} + \Delta Q) = Q_{zariha}$$

Agar  $Q_{zariha}$  musbat miqdor bo‘lsa, sistemada reaktiv quvvat keragidan ortiqligini bildiradi, bu holat juda kam uchraydi. Bunday holda loyiha rahbari bilan maslahatlashib elektrostansiyada reaktiv quvvat ishlab chiqarishni kamaytirish kerak, ya’ni uning  $\cos\phi$  sini ko‘tarish lozim. Agar  $Q_{zariha}$  manfiy miqdor bo‘lsa, ko‘rilayotgan sistemada reaktiv quvvat etishmayotgan bo‘ladi. Yetishmayotgan reaktiv quvvatni sistemadan olish iqtisodiy tomondan ma’qul emas, chunki bu ortiqcha aktiv va reaktiv quvvat isrofiga olib keladi, hamda kuchlanish rostlashuvini murakkablashtiradi. Shuning uchun podstansiyalarning PK tarafida reaktiv quvvat ishlab chiqaradigan qo‘sishimcha manbalar o‘rnatish kerak bo‘ladi (*sinxron kompensatorlar yoki statik kondensatorlar 4-ilova 1,2-jadvalga qarang*).

Reaktiv quvvat balansini to‘g‘ri tuzish va qo‘sishimcha reaktiv quvvat manbalarini to‘g‘ri joylashtirish quvvat isrofini kamayishiga, ba’zi hollarda HL simlarini kesim yuzasini kamayishiga olib keladi.

## 4. BERILGAN TUMAN UCHUN ELEKTR TA'MINOTI SXEMALARINING HISOBLASH VARIANTLARINI QABUL QILISH

Loyihalash maqsadida har bir iste'molchi uchun topshiriqda hisobiy kattaliklar berilgan:  $P_n$ ,  $\cos\varphi_n$ ,  $W_n$ .

Umumiyligi minimal bo'lgan eng optimal variant ko'rsatilishi kerak.

Bunda quyidagi texnik talablarga amal qilish kerak:

-I kategoriya iste'molchilarini uzlusiz ta'minlash va II, III kategoriya iste'molchilari uchun ruxsat etilgan ishonchlikni ta'minlash maxsus tadbirlarini bajarish;


-Ta'mirlash ishlarini (*generatorlarni, transformatorlarni va HL*) olib borish uchun va zaxira quvvat oqimini oqib o'tishiga qulay bo'lgan sxemani tanlash;

-Foydalanimayotgan material va uskunalarining iloji boricha minimal sonini ishlatish;

-Tarmoq sxemasini iloji boricha soddalashtirish kerak, shunda xizmat qiluvchi xodim tomonidan qilinadigan xato harakatlar kamayadi hamda xizmat ko'rsatish xavfsizligiga rioya qilinadi;

-Ta'minlovchi punktlardan ketadigan HL lari iloji boricha bir xil yuklanishi kerak.

Agar ko'rilibayotgan variantlar texnik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lsa, u holda keyingi hisobni davom ettirish uchun liniyalarning uzunligi eng kam bo'lgan variant qoldiriladi.



4.1-rasm.

Masalan, iste'molchilarning berilgan kategoriyalari va joylashuvlari uchun elektr ta'minoti sxemasining quyidagi radial variantlarini ko'rib chiqish mumkin: "a", "b", "c", "d" variantlarini umumiy uzunligi bo'yicha solishtirilsa, faqat ikkita variant "a" va "d" bir-biriga tengligi ma'lum bo'ladi. Hisoblash uchun "a" variantni tanlaymiz, chunki "B", "C", "D", "E" podstansiyalarini ta'minlash uchun eng ishonchlisi shu variantdir.

Loyihalashda yopiq zanjirli(*halqasimon*) variantlarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

a) Halqa ichida bir xil kuchlanish olish kerak. Halqadan chiqadigan shoxobchalarda kichik kuchlanish olish mumkin.

b) Halqaga yuqori darajali ishonchlilik talab qiladigan iste'molchilar olinadi. (I va II kat.)

c) Halqaga birlashtirilayotgan yuklamalar kattalik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lishi shart.

Eslatma: Hisoblanayotgan variantlar loyiha rahbari bilan kelishilib, tasdiqlanishi lozim.

## 5. RADIAL VARIANTINING ELEKTR HISOB-KITOBI

### 5.1.Tarmoqning nominal kuchlanishini aniqlash

Nominal kuchlanishni tanlash elektr tarmog'ini loyihalashda muhim o'rinni tutadi, chunki asosiy sarf-harajatlar va ekspluatatsiya chiqimlari aynan shunga bog'liq.

Uzunligi 250 km dan kamroq, kuchlanishi 35-500 kV li tuman elektr tarmoqlarini hisoblash uchun quyidagi tanlov usullari tavsiya qilinadi:

a) formula bo'yicha:  $U = 4,34 \cdot \sqrt{l + 0,016 \cdot P}$ , kV.

bu yerda,  $l$  – liniya uzunligi, km;  $P$  – iste'molchini quvvati, kVt.

b) jadval bo'yicha liniyaning kesim yuzasiga bog'liq holda  $\Delta U=10\%$ ,  $\cos\varphi=0,85$  ga teng bo'lganda uzatilayotgan quvvatning va liniya uzunligining eng katta miqdorlari:

5.1.1-jadval

Simning markasi	$U_n=36,7$ kV		$U_n=115$ kV		$U_n=230$ kV	
	P, MVt	$l$ , km	P, MVt	$l$ , km	P, MVt	$l$ , km
AC-35	1,9	65	-	-	-	-
AC-50	2,7	56	-	-	-	-
AC-70	3,78	50	11,8	158	-	-
AC-95	5,15	45	16,1	141	-	-

AC-120	6,5	40	20,3	126	-	-
AC-150	8,12	36	25,4	113	-	-
AC-185	10	32	31,3	101	-	-
ACO-240	-	-	40,6	86	84,4	250
ACO-300	-	-	50,7	74	102	220
ACO-400	-	-	-	-	136	170

c)  $T=3000 \div 5000$  soat va  $\cos\varphi=0,9$  ga teng bo‘lganda po‘lat-alyumin simli liniyalarning iqtisodiy quvvati bo‘yicha:

5.1.2-jadval

Simning markasi va kesim yuzasi ( $\text{mm}^2$ )	Iqtisodiy quvvat, MVt		
	Kuchlanishi		
	35 kV	110 kV	220 kV
AC-35	2,22	-	-
AC-50	3,17	-	-
AC-70	4,44	13,9	-
AC-95	6,0	18,8	-
AC-120	7,6	23,8	-
AC-150	9,5	29,7	-
AC-185	11,8	36,7	-
ACO-240	-	47,5	80,8
ACO-300	-	59,5	118
ACO-400	-	-	158
ACO-500	-	-	197


Sistema bilan bog‘lovchi liniyaning kuchlanishini tanlash 5.2.§ dagi misolda berilgan.

Eslatma: Formulalar va jadvaldagi sonlar liniya oxirida bitta yuklama bo‘lganda va bir zanjir uchun berilgan.

Elektr tarmoq kuchlanishini tanlashga misol:

Uzunligi km da ikkita yuklamalni (MVt) liniya berilgan. Liniyaning har bir uchastkasi uchun kuchlanish aniqlansin.

B-C uchastkadagi quvvat “C” nuqtadagi yuklamaga teng, ya’ni 50 MVt. Iqtisodiy quvvat jadvali bo‘yicha  $U=110 \text{ kV}$ .



5.1.1-rasm.

A-B uchastkadagi quvvat “B” va “C” yuklamalar yig‘indisiga teng, ya’ni  $50+100$  MVt. Iqtisodiy quvvat jadvali bo‘yicha 2 ta variantdan birini olish mumkin: bitta zanjirli yoki ikkita zanjirli, 220 kV kuchlanishli liniya.

Uzatilayotgan quvvatlarning eng katta miqdorlari jadval bo‘yicha tekshirilsa, ham xuddi shu natijalar chiqadi.

A-B uchastkadagi kuchlanishni uzil-kesil tanlash, faqat variantlarni texnik-iqtisodiy solishtirish orqali yoki iste’molchilar kategoriyasini hisobga olib bajariladi.

A-B uchastka kuchlanishini tanlashda ta’minlovchi “A” podstansiya kuchlanishini hisobga olish kerak.

## 5.2. HL simlarining kesim yuzasini tanlash va ularning parametrlarini hisoblash

Tuman elektr tarmoqlari simlarining kesim yuzalari tokning iqtisodiy zichligi bo‘yicha tanlanib, tojlanishga va normal hamda avariyanadan keyingi rejimlarda ruxsat etilgan tok qiymatiga tekshiriladi.

35 kV va undan yuqori kuchlanishli HL da odatda po‘lat-alyumin AC, ACO va ACU markali simlar ishlataladi. Bu simlarda tokning iqtisodiy zichligi ( $j_{iq.zich}$ ) maksimal yuklamaning ishlash vaqtiga ( $T_m$ ) bog‘liq. O‘rta Osiyo uchun:

5.2.1-jadval

$T_m$ (soat)	$1000 \div 3000$	$3000 \div 5000$	$5000 \div 8760$
$j_{iq.zich}$ (A/mm <sup>2</sup> )	1,5	1,4	1,3

Simning kesim yuzasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$F_{his} = \frac{I_m}{j_{iq.zich}};$$

bu yerda,  $I_m = \frac{S_m}{\sqrt{3}U_n}$  –liniyaning maksimal ish rejimidagi yuklama toki, A;

$S_m$  – maksimal rejimdagi liniyadan uzatilayotgan to‘la quvvat, MVA;  
 $U_n$  – liniyaning nominal kuchlanishi, kV.

Hosil bo‘lgan hisobiy yuza eng yaqin standart songacha yaxlitlanishi, hamda tojlanishga tekshirilishi kerak. Kesim yuzasi  $70 \text{ mm}^2$  yuqori bo‘lgan  $110 \text{ kVli}$  simlar tojlanmaydi.  $220 \text{ kVli}$  kesim yuzasi –  $240 \text{ mm}^2$  li simlar ham tojlanmaydi.  $35 \text{ kVli}$  HL tojlanishga tekshirilmaydi. Agar olinayotgan kesim yuza iqtisodiy quvvat bo‘yicha tuzilgan jadvaldagidan katta bo‘lsa, u holda nominal kuchlanish oshiriladi yoki ikkita zanjirli liniya olinadi.

Simlarning kesim yuzalarini aniqlashdan oldin maksimal yuklama rejimida hamma liniyalardan oqayotgan quvvat miqdorini taxminan aniqlash kerak. Radial variantda yuklama quvvatlari yig‘indisi har bir radiusning oxiridan manbaga qarab hisoblash yo‘li bilan topiladi.

Tokning iqtisodiy zichligi bo‘yicha qilinayotgan hisob-kitobda  $j_{iq.zich.}$  ni aniq tanlash katta ahamiyatga ega.  $j_{iq.zich.}$  maksimal yuklamaning vaqtি  $T_m$  ga bog‘liq,  $T_m$  esa har bir podstansiya uchun quyidagicha hisoblanadi:

a) Loyihalash uchun berilgan topshiriqda  $P_m$  - yuklamaning maksimal aktiv quvvati va  $W_{yil}$  - iste’molchining(*podstansiya*) yil davomida qabul qiladigan energiya miqdori bo‘lsa, u holda  $T_m$ :

$$T_m = \frac{W_{yil}}{P_m}, \text{ soat.}$$

Agar bir necha podstansiyalarni ta’minlaydigan liniyaning kesim yuzasi topilayotgan bo‘lsa, unda bu liniya uchun o‘rtacha muallaq  $T_{o'rt.m}$  aniqlanadi:

$$T_{o'rt.m} = \frac{P_B \cdot T_B + P_C \cdot T_C + \dots + P_n \cdot T_n}{P_B + P_C + \dots + P_n}, \text{ soat;}$$


b) aniqlangan  $T_m$  bo‘yicha bitta liniya uchun  $j_{iq.zich.}$ ,  $I_m$  va  $I_{his}$  lar topiladi.

Berilgan stansiya shinalarini sistema bilan bog‘lovchi liniyaning kesim yuzasini topishga alohida ahamiyat berish kerak. Bu liniyadan loyihalanayotgan tarmoqning maksimal, minimal va avariyanadan keyingi (holatlari) ish rejimlariga bog‘liq bo‘lgan har xil quvvat o‘tishi mumkin.

Namuna uchun misol:


Mavjud ishlab turgan stansiya shinalarini sistema bilan bog‘lovchi liniyaning kesim yuzasini topishda quyidagi misolni ko‘rib chiqamiz. Bu liniyadan loyihalanayotgan tarmoqning maksimal, minimal va avariyanadan keyingi (holatlari) ish rejimlariga bog‘liq bo‘lgan har xil quvvat o‘tishi quyidagi ko‘rinishda ishlab chiqarilgan.

Maksimal rejim:




5.2.1-rasm.

Minimal rejim:



5.2.2-rasm.

Avariyan dan keyingi rejim: (bitta generator o‘chirilgan)



5.2.3-rasm.

Misoldan ko‘rinib turibdiki:

- HL-3 ning kesim yuzasi maksimal rejim (*quvvat 150 MVA ga teng*) bo‘yicha aniqlanib, avariyan dan keyingi rejimda (*quvvat 185 MVA ga teng*) 2-ilovadagi 1-jadvalda ruxsat etilgan tokka tekshirilishi kerak.

Eslatma:

1. Sistema bilan bog'lovchi liniyaning kuchlanish elektr stansiyaning shinalaridagi YUK kuchlanishini hisobga olgan holda ish rejimlarida (*ko'rigan maksimal yoki minimal quvvatlarning maksimal oqimi bo'yicha*) qabul qilinadi.

2. Tokning iqtisodiy zichligini aniqlashda sistema bilan bog'lovchi liniya uchun  $T_m=5000$  soat deb olinadi.

3. Minimal rejimlarda hamma yuklamalar 60% gacha kamaytiriladi.

4. Avariyanan keyingi rejimda podstansiyaning II va III kategoriya yuklamalari 70% gacha kamaytirilishi mumkin.

5. Avariyanan keyingi hisobiy rejim tarmoq elementlaridan bir vaqtning ichida faqat bittasida sodir bo'lgan shikastlanish asosida tanlanadi va loyiha rahbari bilan kelishib olinadi.

Misol:

Berilgan "B" va "C" podstansiyalar yuklamalari, ularning quvvat koeffitsiyentlari, masofalar km da.

$$P_B=100 \text{ MVt} \quad \cos\varphi_B=0,9 \quad l_{AB}=90 \text{ km}$$


$$P_C=50 \text{ MVt} \quad \cos\varphi_C=0,8 \quad l_{BC}=60 \text{ km}$$

Podstansiya "B"- I kategoriya, "C"- II kategoriya.

Shuningdek, iste'mol qilinadigan yillik energiya miqdori ham berilgan.

$$W_B=400 \cdot 10^6 \text{ kVt}\cdot\text{soat}, \quad W_C=225 \cdot 10^6 \text{ kVt}\cdot\text{soat}.$$

"B", "C" podstansiya uchun maksimal yuklamalardan foydalanish



#### 5.2.4-rasm.

vaqtin T<sub>B</sub> va T<sub>C</sub> larni hamda to'la quvvatlarni aniqlaymiz:

$$T_B = \frac{W_B}{P_B} = \frac{400 \cdot 10^6}{100 \cdot 10^3} = 4000 \text{ soat} \quad S_B = \frac{P_B}{\cos\varphi_B} = \frac{100}{0,9} = 111 \text{ MVA}$$

$$T_C = \frac{W_C}{P_C} = \frac{225 \cdot 10^6}{50 \cdot 10^3} = 4500 \text{ soat} \quad S_C = \frac{P_C}{\cos\varphi_C} = \frac{50}{0,8} = 62,5 \text{ MVA}$$

$F_{HL-1}$  ni tokning iqtisodiy zichligi bo'yicha topish uchun o'rtacha vaqt  $T_{o'rt.}$  ni aniqlash kerak:

$$T_{o'rt.} = \frac{W_B + W_C}{P_B + P_C} = \frac{400 \cdot 10^6 + 225 \cdot 10^6}{(100+50) \cdot 10^3} = 4167 \text{ soat}$$

HL-1 ning hisobi:

Liniyadan oqayotgan quvvat:

$$S_{HL-1} = S_{HL-2} + S_B = 111 + 62,5 = 173,5 \text{ MVA}$$

Liniyadagi tok:

$$I_{HL-1} = \frac{S_{HL-1}}{\sqrt{3}U_{HL-1}} = \frac{173 \cdot 10^3}{\sqrt{3} \cdot 220} = 458 \text{ A}$$

"B" p/st dagi I kategoriyali iste'molchini ishonchli ravishda elektr bilan ta'minlash uchun metall tayanchlarda joylashgan ikkita alohida parallel liniyani qabul qilish kerak. Shunda har bir liniyadan hisobiy yuklama tokining yarmi o'tadi, ya'ni  $458:2=229$  A.

Ana shu tok miqdoriga qarab har qaysi liniyaning kesim yuzasi tanlanadi:

$$F_{HL-1} = \frac{I_{HL-1}}{j_{iq.zich}} = \frac{229}{1,4} = 185 \text{ mm}^2$$

bu yerda,  $j_{iq.zich}$  – tokning iqtisodiy zichligi,  $T_{o'rt.}$  bo'yicha jadvalga qarab  $1,4 \text{ A/mm}^2$  ga teng deb olingan.

220 kV li liniyalar uchun tojlanish sharti bo'yicha (5.2 *punktdagi jadvalga qarang*) simning kesim yuzasi  $240 \text{ mm}^2$  dan kam bo'lmasligi tavsija qilinadi. Shuning uchun ikkitali  $2 \times \text{ACO}-240$  markali liniyani tanlaymiz. Ikkitadan ko'p zanjirli liniyani olish iqtisodiy tarafdan muvofiq emas.

Bitta liniya avariya holatida o'chirilganda, hamma yuklama ish holatidagi ikkinchi liniyadan o'tadi. Unda tok 458 A ga teng bo'ladi. 2-*ilovadagi 1-jadvaldan* ruxsat etilgan tokni topib qizish darajasi bo'yicha tekshiramiz. ACO-240 uchun  $I_{rux}=605$  A; bu tok avariyanidan keyingi mumkin bo'lgan tok 458 A dan ancha katta.

Liniya parametrlarini aniqlash uchun 2-*ilovadagi 2-jadvaldan* ACO-240 markali sim uchun kuchlanish 220 kV, o'rtacha geometrik masofa  $D_{o'rt.}=9$  m bo'lgandagi  $r_0$ ,  $x_0$ ,  $q_0$  larning qiymatini ko'chirib olamiz. Bu qiymatlar jadvalda 100 km uchun berilgan, 1 km uchun qaytadan hisoblaymiz.

1 ta liniya uchun:

$$r_0 = 13 \text{ Om/km}; \quad R_{HL-1} = 13 \cdot 90 / 100 = 11,7 \text{ Om};$$

$$x_0 = 43 \text{ Om/km}; \quad X_{HL-1} = 43 \cdot 90/100 = 38,7 \text{ Om}; \\ q_0 = 14,1 \text{ MVAr/km}; \quad Q_{CHL-1} = 14,1 \cdot 90/100 = 12,7 \text{ MVAr}.$$

2 ta parallel liniyalar uchun:

$$R_{HL-1} = 11,7 : 2 = 5,85 \text{ Om}; \\ X_{HL-1} = 38,7 : 2 = 19,35 \text{ Om}; \\ Q_{C_{HL-1}} = 12,7 \cdot 2 = 25,4 \text{ MVAr}.$$

2-ilojaning 2-jadvalidan 100 km liniyaning ishlab chiqarayotgan reaktiv quvvatini  $q_0$  topish mumkin,  $q_0$  ni formula orqali ham aniqlash mumkin:  $q_0 = U_{HL-1}^2 \cdot b_0$  MVAr/km;

bu yerda,  $b_0$ -1 km liniyaning sig‘im o‘tkazuvchanligi.

Unda butun liniya generatsiya qilayotgan zaryad quvvat quyidagi formula orqali topiladi:  $Q_C = q_0 \cdot l_{HL-1}$  MVAr.

2 ta parallel liniyalar uchun hisoblangan parametrlar tarmoqning maksimal va minimal ish holatlarini hisoblash uchun qo‘llaniladi, bitta liniya uchun hisoblangan parametrlar esa avariyanadan keyingi parallel liniyalardan biri o‘chirilgan holatni hisoblash uchun kerak bo‘ladi.

HL-2 ni hisobi:

Maksimal rejimda liniyadantayotgan quvvat:  $S_{HL-2}=62,5$  MVA

$$\text{Liniyadagi tok: } I_{HL-2} = \frac{S_{HL-2}}{\sqrt{3}U_{HL-2}} = \frac{62,5 \cdot 10^3}{\sqrt{3} \cdot 110} = 328 \text{ A}$$

Shu tokning qiymatiga qarab simning kesim yuzasini tanlaymiz:

$$F_{HL-2} = \frac{I_{HL-2}}{j_{iq.zich}} = \frac{328}{1,4} = 234 \text{ mm}^2$$

“C” podstansiya II kategoriyaga taalluqli iste’molchi bo‘lganligi uchun metalli tayanchlarda joylashgan ACO-240 markali simlar tanlanadi. Yuqorida ko‘rsatilgan jadvallardan ACO-240 markali, 110 kV kuchlanishli simlar orasidagi geometrik masofa  $D_{o.rt} = 5$  m bo‘lgan sim uchun  $r_0$ ,  $x_0$ ,  $q_0$  larning qiymatini ko‘chirib olamiz. Jadvalda berilgan sonlar 100 km liniya uchun berilgan, ularni 60 km uzunlikka moslab qayta hisoblaymiz.

Jadvaldan HL-2 uchun:

$$r_0 = 13 \text{ Om/km} \quad R_{HL-2} = 13 \cdot 60/100 = 7,8 \text{ Om} \\ x_0 = 40,1 \text{ Om/km} \quad X_{HL-2} = 40,1 \cdot 60/100 = 24,06 \text{ Om} \\ q_0 = 3,75 \text{ MVAr/km} \quad Q_{C_{HL-2}} = 3,75 \cdot 60/100 = 2,25 \text{ MVAr}$$

### 5.3. Podstansiyalarda transformatorlar tanlash va ularning parametrlarini hisoblash

Transformatorlarni tanlashda ma'lumotnomalardan[1] yoki shu metodik qo'llanmaning *3-ilovadagi 1-5-jadvallardan* foydalanish tavsiya etiladi. Transformatorlar tanlashda kuchlanishni ko'taruvchi va pasaytiruvchi kuch transformatorlari kuchlanishni rostlash bo'yicha va nol shoxobchadagi kuchlanish bo'yicha farq qilishiga alohida e'tibor berish kerak.

### **5.3.a.Kuchlanishni ko'taruvchi podstansiyalarda transformatorlarni tanlash**

Generatorning to'la quvvatini o'tkazish uchun tanlanayotgan har bir transformatorning quvvati generator quvvatiga teng yoki katta bo'lishi shart. Elektr stansiyalarida odatda blok "generator-transformator" qo'llaniladi, shuning uchun transformatorlarning soni generatorlar soniga teng bo'ladi.


*Kuchlanishni ko'taruvchi transformatorlar* PK tomonida nominal kuchlanishdan 5% ortiq kuchlanishga ega bo'ladi, YUK tomonida esa rostlash transformator o'chgan holatda amalga oshiriladi, bunda diapazon  $\pm 2 \times 2,5\%$  tashkil etadi.

Transformatorning sinfiga bog'liq holda nol rostlash shahobchasi quyidagicha:

35 kV uchun – 38,5 kV;

110 kV uchun – 121 kV;

220 kV uchun – 242 kV;



5.3.1-rasm.

ya'ni, transformatorning salt yurish holatida u tarmoqning nominal kuchlanishidan 10% yuqori.

Transformatorning YUK shinalaridagi kuchlanishini qo'shimcha shoxobchalar yordamida  $\pm 2 \times 2,5\%$  oraliqda rostlash mumkin, transformator shu paytda tarmoqdan o'chirilgan bo'lishi kerak.

Masalan, 35 kV li transformatorlar uchun:

Qo'shimcha shoxobchalar yordamida kuchlanishni rostlash namunalari 7.3a.§ punktda berilgan.

### **5.3.b.Pasaytiruvchi podstansiyalarda transformatorlar tanlash**

O'lchamlari yoki quvvati bo'yicha tanlash imkonini bo'lmagan vaqtida bir fazali transformatorlar tanlanadi. Pasaytiruvchi kuch transformatorlari YUK tomonida kuchlanishni yuklamalar o'chirilmay turib rostlaydigan maxsus qurilma(RPN) borligi bilan ko'taruvchi transformatorlardan farq qiladi.

Ularning nol uchlari quyidagicha:

35 kV uchun – 36,75 kV;

110 kV uchun – 115 kV;

220 kV uchun – 230 kV;

Bu qiymatlarga qarab ma'lumotnomalardagi ko'rsatkichlar qaysi (*pasaytiruvchi yoki ko'taruvchi*) transformatorga tegishliligin bilish mumkin. Pasaytiruvchi transformatorlarning YUK tomonidagi maxsus qurilma(RPN) yordamida PK dagi kuchlanish katta diapazonda rostlanadi.

#### **2 chulg'amli pasaytiruvchi transformatorlar:**

*35 kV li transformatorlar uchun ±12 %( $\pm 8$  bosqich), ya'ni nol uchidan – 36,75 kV, bunda 1,5 % dan har ikki tomonga 0,55 kV dan bosqichma-bosqich o'zgaradi.*

*110 kV li transformatorlar uchun ±16 %( $\pm 9$  bosqich), ya'ni 115 kV, 1,78% dan har ikki tomonga 2,05 kV dan.*

*220 kV li transformatorlar uchun ±12 %( $\pm 8$  bosqich), ya'ni 230 kV, 1,5% dan har ikki tomonga 3,45 kVdan bosqichma-bosqich o'zgaradi.*

*4-ilovaning 3-jadvalida pasaytiruvchi transformatorlarning shoxobchalari berilgan.*

#### **3 chulg'amli pasaytiruvchi transformatorlar:**

Uch chulg'amli transformatorlar uchta kuchlanish kerak bo'lgan p/st larda o'rnatiladi.

Masalan, 110/35/10,5 kV; 220/110/35 kV va h.k.

*3-ilovadagi 4 va 5-jadvallar yordamida transformatorlar tanlayotganda shuni nazarda tutish kerakki, hozirgi vaqtida 3 fazali 3 chulg'amli transformatorlarning chulg'amlari quvvat bo'yicha 100/100/100 etib yasalgan, ya'ni:  $R_{YUK}=R_{O'K}=R_{PK}$*

Bu transformatorlarning YUK tomonida RPN va O'K tomonida PBV bor.

110 kV da RPN ±16% ( $\pm 9$  bosqich) va PBV ±2x2,5%

220 kV da RPN ±12% ( $\pm 8$  bosqich) va PBV ±2x2,5%

Pasaytiruvchi podstansiyalarda transformatorlarning ratsional soni 2 ga teng. Uch va undan ortiq transformatorlarni o'rnatish texnik-iqtisodiy hisoblash natijasiga asoslanadi. Podstansiyalarda odatda bir xil quvvatli, chulg'amlarning ularish guruhlari bir xil bo'lgan transformatorlar o'rnataladi. II va III kategoriyali podstansiyalarda 2 ta transformator o'rnatilsa, har qaysi transformatorlarning quvvati PK tomonidagi iste'molchi quvvatining 70% ga hisoblangan bo'lishi kerak. Bu bitta transformator avariya holatida bo'lgan vaqt uchun kerak bo'ladi. I kategoriya iste'molchilari uchun transformatorlar 100% zaxirali qilib tanlanadi. III kategoriya iste'molchining quvvati 100 MVA dan kam bo'lgan podstansiyalarda 24 soat ichida zahiradagi zahira quvvat hisobidan transformatorlar almashtirish imkoniyati bo'lgan holda bitta transformator o'rnatish ruxsat etiladi.

### **5.3.v. Avtotransformatorlar tanlash**

Kapital xarajatlarni kamaytirish, kam isrof qilib, ko'proq quvvat o'tkazish uchun avtotransformatorlar qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida ishlab chiqarilayotgan avtotransformatorlarni chulg'amlari 100/100/50 quvvatga moslashgan, bu esa avtotransformatorlarni chegaralab qo'yadi.

Misol yordamida tushuntiramiz:

Avtotransformatorning PK chulg'ami *3-ilovadagi 5-jadvaldagi* YUK nominal quvvatining 50% i ga moslashgan.


Agar generator 60 MVA quvvat ishlab chiqarayotgan bo'lsa, 63 MVA li avtotransformator tanlash mumkin emas,  $S_n=125$  MVA bo'lgan avtotransformator tanlash lozim. Bu albatta podstansiyaning kapital xarajatini oshirib yuboradi. Bundan tashqari avtotransformatorning YUK tomonida hech qanday rostlash moslamalari yo'q, bu esa tarmoqda rostlash imkoniyatini chegaralaydi. Shuning uchun avtotransformatorlar faqat kuchlanishni pasaytiruvchi podstansiyalarda o'rnataladi. Ularning O'K chulg'amlarida RPN  $\pm 12\%$  (*6 ta zinali*) bo'lib, YUK va PK tomonlarida hech qanday qo'shimcha shaxobchalar yo'q.

Avtotransformatorlarning nominal quvvati deb YUK chulg'amidan o'tkazish mumkin bo'lgan eng katta quvvat tushuniladi. Kuchlanishni pasaytirish rejimida ishlayotgan avtotransformatorda nominal quvvatga teng quvvatni hammasini O'K tarmog'iga uzatish mumkin. Unda PK tarmog'iga quvvat uzatilmaydi. PK tarmog'iga nominal quvvatni 50% yoki undan ham kam uzatilayotgan bir vaqtida, YUK dan O'K tarmog'iga uzatilayotgan quvvat quyidagicha bo'ladi:

$$S_{O'K} = S_{nom} - S_{PK}$$

Avtotransformatorlar qo'llashni chuqurroq o'rganish uchun[3] ga qarang.

Pasaytiruvchi podstansiyalarda avtotransformatorlarning soni 2 tadan kam olinmaydi, quvvati esa O'K va PK tomonlaridagi yuklamaga va iste'molchilar kategoriyasiga qarab tanlanadi.



5.3.2-rasm.

### 5.3.g. Podstansiyalarning parametrlarini hisoblash

5.2.§ dagi misolni davom ettirib, “B” va “C” podstansiyalarda transformatorlar tanlaymiz.

Podstansiya “C”: II kategoriyalı YUK tomonida 110 kV kuchlanish, yuklama 62,5 MVA ga teng. 3-ilovadagi 2-jadvaldan 2 ta bir xil 70% yuklamaga moslab ikkita bir xil transformator tanlaymiz:

$$0,7 \cdot 62,5 = 43,7 \text{ MVA}$$

Quvvati bo'yicha TRDN-40000/110 markali transformator to'g'ri keladi.


5.3.1-jadval

bitta transformator uchun:	podstansiya C uchun:
$R_T = 1,44 \text{ Om}$	$R_C = 1,44 / 2 = 0,72 \text{ Om}$
$X_T = 34,8 \text{ Om}$	$X_C = 34,8 / 2 = 17,4 \text{ Om}$
$\Delta P_{po.l.} = 42 \text{ kVt}$	$\Delta P_{po.l.} = 42 \cdot 2 = 84 \text{ kVt}$
$Q_{po.l.} = 280 \text{ kVAr}$	$Q_{po.l.} = 280 \cdot 2 = 560 \text{ kVAr}$

Hisoblangan parametrlar almashtiruv sxemasida ko'rsatilishi kerak (5.5.§ ga qarang).

Podstansiya "B": PK tomonida yuklama 111 MVA, O'K tomonida esa 62,5 MVA ("C" podstansiyadagi va HL-2 dagi isroflar hisobga olinmaganda).

3-ilovadagi 5-jadvaldan 2 ta ATDSTN-200000/220/110 markali avtotransformatorlarni iste'molchilarini ta'minlash uchun tanlaymiz:




5.3.3-rasm.

Maksimal rejim:

2 ta transformator ishlab turgan paytda PK tomoniga 200 MVA uzatish mumkin, aslida 111 MVA kerak. O'K tomoniga  $400-111=289$  MVA uzatish mumkin, aslida 62,5 MVA kerak. Demak,  $2 \times 200$  MVA quvvat to'g'ri keladi, lekin ko'proq.

Avariya rejim(bitta avtotransformator o'chirilgan):

PK tomoniga 111 MVA uzatiladi, O'K tomoniga esa  $200-111=89$  MVA uzatiladi, aslida  $62,5 \cdot 0,7 = 43,7$  MVA kerak. Bitta transformator



5.3.4-rasm.

o‘chirilganda PK chulg‘am maksimal rejimda 11% ga yuklangan bo‘ladi. 50% ga moslashgan transformatorlarning PK cho‘lg‘ami I kategoriyalı 111 MVA li yuklamani ta’minlay olmaydigan ko‘rinadi, lekin yuklamaning barchasi I kategoriyalı bo‘lmaydi, podstansiyalarda hamma vaqt II va III kategoriyalarga taalluqli bir necha % yuklamalar bo‘ladi.

Agar avtotransformatorni shunday usulda tanlash qoniqtirmasa, unda uchta ADTSTN-100000/220/110 avtotransformatorli variantni ham ko‘rib chiqish mumkin.

Maksimal rejim:

Yuklama 111 MVA ga teng, PK tomonida 150 MVA quvvat ta’minlanishi mumkin. O‘K tomonida  $300-111=189$  MVA quvvat ta’minlanadi, yuklama esa 62,5 MVA.

Avariya rejim (bitta transformator o‘chirilgan)

PK tomonida 100 MVA, yuklama 111 MVA O‘K tomonida  $200-111=89$  MVA, yuklama 43,7 MVA.

Ikkita variantni solishtirib, quyidagi xulosaga kelamiz: ishonchli ta’minot nuqtayi nazaridan ikkalasi bir xil, shuning uchun ularni kapital xarajatlari bo‘yicha solishtiramiz([1] *adabiyotdan foydalanamiz*):

### 5.3.2-jadval

	VARIANTLAR	
	2ta transformatorli, ming shartli birlik	3ta transformatorli, ming shartli birlik
Avtotransformatorlar	$2 \times 276 = 552$	$3 \times 204 = 612$
220 kV li yacheykalar	$2 \times 100 = 200$	$3 \times 100 = 300$
110 kV li yacheykalar	$2 \times 40 = 80$	$3 \times 40 = 120$
10 kV li yacheykalar	$2 \times 3,2 = 6,4$	$3 \times 3,2 = 9,6$
JAMI:	838,4	1041,6

Texnik-iqtisodiy hisob 2 ta transformatorli variantning afzalligini ko‘rsatadi–farqi 24,4%.

### 5.3.4-jadval

Bitta transformator uchun:	Ikkita transformator uchun:
$R_{YUK} = 0,2 \text{ Om}$	$R_{YUK} = 0,2 \cdot 2 = 0,1 \text{ Om}$
$R_{O'K} = 0,2 \text{ Om}$	$R_{O'K} = 0,2 \cdot 2 = 0,1 \text{ Om}$
$R_{PK} = 1,15 \text{ Om}$	$R_{PK} = 1,15 \cdot 2 = 0,575 \text{ Om}$
$X_{YUK} = 30,4 \text{ Om}$	$X_{YUK} = 30,4 \cdot 2 = 15,2 \text{ Om}$
$X_{O'K} = 0$	$X_{O'K} = 0$
$X_{PK} = 54 \text{ Om}$	$X_{PK} = 54 \cdot 2 = 27 \text{ Om}$
$\Delta P_{po \cdot l.} = 125 \text{ kVt}$	$\Delta P_{po \cdot l.} = 125 \cdot 2 = 250 \text{ kVt} = 0,25 \text{ MVt}$

$$\Delta Q_{po.l} = 1000 \text{ kVAr}$$

$$\Delta Q_{po.l} = 1000 \cdot 2 = 2000 \text{ kVAr} = 2 \text{ MVAr}$$

Avtotransformatorning YUK tomonida kuchlanish 230 kV ga teng va qo'shimcha shoxobchalar yo'q, O'K tomonida esa shoxobchali RPN bor (4-ilova, 3-jadvalga qarang).

#### **5.4. Radial variantning prinsipial sxemasini tuzish**

Elektr ta'minotining kuchlanishi, simlarning kesim yuzasi, podstansiyalardagi transformatorlar tanlangandan so'ng prinsipial sxema tuziladi. Sxemada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi: liniyalarning zanjirlar soni, simlarning markasi, liniyaning nomeri, uzunligi, podstansiyalarning nomeri, yuklamalarning aktiv, reaktiv va to'la quvvatlari, iste'molchilarning kategoriyalari, transformatorlarning soni va tiplari, YUK, O'K va PK chulg'amlarning kuchlanishlari, shinadagi kuchlanish.

Sxema bir chiziqli ko'rinishda chiziladi. PK chulg'amidagi yacheykalar soni podstansiyaning quvvatiga qarab olinadi.

II va III kategoriyali oxirgi podstansiyalarda "ko'priksimon" yoki o'chirgichlarsiz qisqa tutashtirgich va ajratkichlar yordamida qo'llaniladigan sxemalar tavsiya etiladi. Bu elektr ta'minot sxemalarining ishonchlilikiga ta'sir ko'rsatmagan holda elektr qismlarga sarflanadigan kapital mablag'ni kamaytiradi. Misol tariqasida 5.2.§ va 5.3.§ da keltirilgan hisoblar uchun tuzilgan prinsipial sxema ko'rsatilgan(5-rasm).

#### **5.5. Ekvivalent almashtiruv sxemasi**

Qabul qilingan prinsipial sxemaga asosan ekvivalent almashtiruv sxemasi tuziladi. 5.2.§ va 5.3.§ da keltirilgan hisoblar natijasida sxemaning parametrlari ko'rsatilgan quyidagi jadval tuziladi:

**5.5.1-jadval**

Liniyalar uchun	Bitta zanjir uchun			
	R <sub>HL</sub> , Om	X <sub>HL</sub> , Om	Q <sub>C</sub> , MVAr	Q <sub>C</sub> /2, MVAr
HL-1	11,7	38,7	12,7	6,35
HL-2	7,8	24,06	2,25	1,125
HL-3	va h.k.			
Ikkita zanjir uchun				
HL-1	5,85	19,35	25,4	12,7
HL-2	-	-	-	-
HL-3	va h.k.			

## Podstansiyadagi transformatorlar uchun

5.5.2-jadval

P/st nomi	Aktiv qarshilik			Induktiv qarshilik			Po‘latdagi isrof	
	R <sub>YUK</sub> , Om	R <sub>O·K</sub> , Om	R <sub>PK</sub> , Om	X <sub>YUK</sub> , Om	X <sub>O·K</sub> , Om	X <sub>PK</sub> , Om	ΔP <sub>po·l</sub> , kVt	ΔQ <sub>po·l</sub> , kVAr
P/st B 220 kV	0,2	0,2	1,15	30,4	0	54	125	1000
	0,1	0,1	0,575	15,2		27	250	2000
P/st C 110 kV	1,44	-	-	34,8	-	-	42	280
0,72	-	-		17,4	-	-	84	560
P/st D va boshqa P/st uchun								

Eslatma: Jadvalda – sur’atda – bitta transformator uchun keltirilgan parametrlar, maxrajda – ikkita transformator uchun.

Ekvivalent almashtiruv sxemada elektr uzatuvchi liniyalar  $\Pi$  simon shaklda, transformatorlar esa  $\Gamma$  simon shaklda ko‘rsatiladi. Transformatorlarning o‘tkazuvchanliklari yoki o‘zakdagisi rof har doim manba tomonida joylashadi, ya’ni pasaytiruvchi podstansiyalarda YUK tarafda, kuchaytiruvchi podstansiyalarda esa PK tarafda.

Ikkita parallel HL yoki podstansiyada ikkita transformator bo‘lganida almashtiruv sxemada bitta element ko‘rsatilib ( $\Pi$  simon liniya uchun yoki  $\Gamma$  simon transformator uchun) parametrlari ikkita parallel liniya yoki transformator uchun beriladi.

Ekvivalent sxema ishchi sxema bo‘lib, hamma keyingi hisoblar unga qarab olib boriladi. Shuning uchun bu sxemani aniq, toza, katta va to‘g‘ri qilib chizib olish kerak. Hisoblarning natijalari ham shu sxemada o‘z ifodasini topadi.

## **5.6. Radial tarmoqdagi quvvat isrofini nominal kuchlanish bo‘yicha hisoblash**

Elektr energiya elektr stansiyalardan iste’molchilarga uzatilayotganda tarmoqning har bir qismida quvvat va energiya isrofi yuzaga keladi. Bu isroflar uzatilayotgan energiyaning taxminan 10% ini tashkil qiladi. Isrofning asosiy qismi liniyalarda, kamrog‘i transformatorlarda bo‘ladi. Elektr hisoblarda tarmoqning har bir bo‘limida aktiv va reaktiv quvvat isroflari aniqlanishi kerak:


a) liniyadagi aktiv quvvat isrofi – bu simlarning qizishi bilan bog‘liq bo‘lgan kattalik, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta P_{HL} = \frac{P_{HL}^2 + Q_{HL}^2}{U_n^2} \cdot R_{HL}, \text{ MVt};$$


bu yerda,  $P_{HL}$  – liniyadan uzatilayotgan aktiv quvvat, MVt;  $Q_{HL}$  – liniyadan uzatilayotgan reaktiv quvvat, MVAr;  $U_n$  – liniyaning nominal kuchlanishi, kV;  $R_{HL}$  – liniyaning aktiv qarshiligi, Om.

b) liniyadagi reaktiv quvvat isrofi – bu simning atrofida va ichida elektromagnit maydon hosil bo‘lishi bilan bog‘liq:

$$\Delta Q_{HL} = \frac{P_{HL}^2 + Q_{HL}^2}{U_n^2} \cdot X_{HL}, \text{ MVAr};$$



5.6.1-rasm. Radial variantning prinsipial sxemasi.



5.6.2-rasm. Radial variantning ekvivalent almashtiruv sxemasi.

v) ikki chulg‘amli transformatorlardagi aktiv quvvat isrofi:

$$\Delta P_T = \frac{P_T^2 + Q_T^2}{U_N^2} \cdot R_T + \Delta P_{pol.}, \quad \text{MVt};$$

bu yerda,  $P_T$  va  $Q_T$  – transformatorning chulg‘amlaridan o‘tayotgan aktiv va reaktiv quvvatlar, MVt va MVAr larda;  $U_N$  – transformatorning YUK tarafidagi nominal kuchlanish, kV;  $R_T$  – transformatorning aktiv qarshiligi, Om;  $\Delta P_{pol.}$  – transformatorning po‘lat o‘zagidagi aktiv quvvat isrofi, MVt, 3-ilovadagi 2,3 - jadvallardan olinadi.

g) ikki chulg‘amli transformatorlardagi reaktiv quvvat isrofi:

$$\Delta Q_T = \frac{P_T^2 + Q_T^2}{U_N^2} \cdot X_T + \Delta Q_{pol.}, \quad \text{MVAr};$$

bu yerda,  $X_T$  – transformatorning reaktiv qarshiligi, Om;  $\Delta Q_{pol.}$  – transformatorning po‘lat o‘zagidagi reaktiv quvvat isrofi, MVAr, 3-ilovadagi 2, 3- jadvallardan olinadi.

d) uch chulg‘amli transformatorlar va avtotransformatorlardagi quvvat isrofi uch nurli almashtiruv sxema bo‘yicha quyidagi formula orqali aniqlanadi:  $\Delta S_T = \Delta P_T + j\Delta Q_T$ , MVA;

Aktiv isrof:  $\Delta P_T = \Delta P_{YUK} + \Delta P_{O'K} + \Delta P_{PK} + \Delta P_{pol.}$ , MVt;

Reaktiv isrof:  $\Delta Q_T = \Delta Q_{YUK} + \Delta Q_{O'K} + \Delta Q_{PK} + \Delta Q_{pol.}$ , MVAr;

bu yerda,

$$\Delta P_{YUK} = \frac{\Delta P_{YUK}^2 + Q_{YUK}^2}{U_n^2} \cdot R_{YUK} - \text{YUK chulg‘amdagisi aktiv quvvat isrofi, MVt};$$

$$\Delta P_{O'K} = \frac{\Delta P_{O'K}^2 + Q_{O'K}^2}{U_n^2} \cdot R_{O'K} - \text{O‘K chulg‘amdagisi aktiv quvvat isrofi, MVt};$$

$$\Delta P_{PK} = \frac{\Delta P_{PK}^2 + Q_{PK}^2}{U_n^2} \cdot R_{PK} - \text{PK chulg‘amdagisi aktiv quvvat isrofi, MVt};$$

$R_{YUK}$ ,  $R_{O'K}$ ,  $R_{PK}$  – transformator YUK, O‘K, PK chulg‘amlarining aktiv qarshiliklari, Om;  $U_n$  – YUK chulg‘amdagisi nominal kuchlanish, kV.

Xuddi shu tartibda  $\Delta Q_T$  ni topish uchun  $\Delta Q_{YUK}$ ,  $\Delta Q_{O'K}$ ,  $\Delta Q_{PK}$  lar aniqlanadi.  $\Delta P_{pol.}$  va  $\Delta Q_{pol.}$  miqdorlar 3-ilovadagi 4,5-jadvallardan olinadi.

5.2.§ boshlangan misolni davom ettirib, 5.5.§(2-rasm) almashtiruv sxemasini to‘ldiramiz.

1. “C” podstansiyaning transformatorlaridagi quvvat isrofi:

$$\Delta P_T = \frac{P_C^2 + Q_C^2}{U_n^2} \cdot R_T = \frac{50^2 + 37,5^2}{110^2} \cdot 0,72 = 0,23, \quad \text{MVt};$$

$$\Delta Q_T = \frac{P_C^2 + Q_C^2}{U_n^2} \cdot X_T = \frac{50^2 + 37,5^2}{110^2} \cdot 17,4 = 5,62 \text{, MVAr.}$$

2. Quvvat:

$$S_1 = S_C + \Delta S_T = (50 + j37,5) + (0,23 + j5,62) = 50,23 + j43,12 \text{, MVA}$$

3. Po'latdagi isrofni hisobga olgan holda:

$$S_2 = S_1 + \Delta S_{pol} = (50,23 + j43,12) + (0,084 + j0,56) = \\ 50,314 + j43,68 \text{ MVA}$$

4. HL-2 liniyaning oxirida hosil bo'lgan zaryad quvvatini hisobga olamiz:

$$S_3 = S_2 + \frac{Q_C}{2} = (50,314 + j43,68) - j1,125 = 50,314 + j42,555 \text{, MVA}$$

5. HL-2 dagi quvvat isrofi:

$$\Delta P_{HL-2} = \frac{P_3^2 + Q_3^2}{U_n^2} \cdot R_{HL-2} = \frac{50,314^2 + 42,555^2}{110^2} \cdot 7,8 = 2,799 \text{ MVt;}$$

$$\Delta Q_{HL-2} = \frac{P_3^2 + Q_3^2}{U_n^2} \cdot X_{HL-2} = \frac{50,314^2 + 42,555^2}{110^2} \cdot 24,06 = 8,635 \text{ MVAr.}$$

6. Quvvat:

$$S_4 = S_3 + \Delta S_{HL-2} = (50,314 + j42,555) + (2,799 + j8,635) = 53,113 + j51,19 \text{, MVA.}$$

7. HL-2 liniyaning boshida generatsiya qilinayotgan quvvatni hisobga olamiz:

$$S_5 = S_4 + \frac{Q_C}{2} = (53,113 + j51,19) - j1,125 = 53,113 + j50,065 \text{, MVA.}$$

8. "B" podstansiya avtotransformatorining O'K chulg'amidagi quvvat isrofi (*faqat aktiv quvvat isrofini topish uchun, chunki X<sub>O'K</sub>=0*):

$$\Delta S_{O'K} = \Delta P_{O'K} = \frac{P_5^2 + Q_5^2}{U_n^2} \cdot R_{O'K} = \frac{53,113^2 + 50,065^2}{220^2} \cdot 0,1 = 0,011 \text{, MVt}$$

9. Quvvatni aniqlaymiz:

$$S_6 = S_5 + \Delta S_{SN} = (53,113 + j50,065) + 0,011 = 53,124 + j50,065 \text{ MVA}$$

10. "B" podstansiya avtotransformatorining PK chulg'amidagi quvvat isrofi:

$$\Delta P_{PK} = \frac{P_B^2 + Q_B^2}{U_N^2} \cdot R_{PK} = \frac{100^2 + 48,4^2}{220^2} \cdot 0,575 = 0,147 \text{ MVt}$$

$$\Delta Q_{PK} = \frac{P_B^2 + Q_B^2}{U_N^2} \cdot X_{PK} = \frac{100^2 + 48,4^2}{220^2} \cdot 27,0 = 6,885 \text{ MVAr}$$

11. Quvvat:

$$S_7 = S_8 + \Delta S_{IIK} = (100 + j48,4) + (0,147 + j6,885) = 100,147 + j55,285 \text{ MVA}$$

12.  $S_8$  quvvatni Kirxgofning birinchi qonuniga asosan topamiz:

$$S_8 = S_6 + S_7 = (53,124 + j50,065) + (100,147 + j55,285) = 153,271 + j105,35 \text{ MVA}$$

13. “B” podstansiya avtotransformatori YUK chulg‘amidagi quvvat isrofi:

$$\Delta P_{YUK} = \frac{P_8^2 + Q_8^2}{U_N^2} \cdot R_{YUK} = \frac{153,271^2 + 105,35^2}{220^2} \cdot 0,1 = 0,072 \text{ MVt}$$

$$\Delta Q_{YUK} = \frac{P_8^2 + Q_8^2}{U_N^2} \cdot X_{YUK} = \frac{153,271^2 + 105,35^2}{220^2} \cdot 15,2 = 10,863 \text{ MVAr}$$

14. Quvvat:

